

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIM OLISHLARI

**Abdullayeva Yulduz Qosimjonovna**

*Farg'ona viloyati Bog'dod tumani 21-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** mustaqil ta'lism, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining mustaqil ta'lism olishlari, interfaol metodlar, usullar, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ta'lism olishida interfaol metodlarni amaliyotda qo'llash haqida ma'lumot berish

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lism, interfaol metod, usul, uy vazifasi, ta'lism samaradorligi

Mustaqil bilim olish ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi va uning asosiy vazifasi har bir kasb egasidan yoki bo'lg'usi kasb egasidan kasbiy mahoratini uzliksiz ravishda takomillashtirib borish va o'z- o'zini kamol toptirish maqsadida amalgalash oshiriladigan ochiq va masofaviy ta'lism kurslarida ta'lism olish malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

### **Mustaqil ta'lismni uch turga ajratish mumkin:**

Mustaqil ish. Bunday turdag'i mustaqil ta'lism o'quv xonalarida tashkil etilib, unda o'tilgan mavzu ustida qayta ishlash, egallangan bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi. Shuningdek o'quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o'zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laboratoriya ishlariiga tayyorgarlik ko'rish kabi topshiriqlar ham mustaqil ish tarzida bajarilishi mumkin.

Mustaqil bilim olish (o'rganish). Bunday turdag'i mustaqil ta'lism auditoriyadan tashqarida amalgalash oshirilib, unda ijodiy va ilmiy tadqiqot xarakterdagi topshiriqlar bajariladi. Mustaqil ta'lismning bunday turidan foydalanish orqali o'rganilayotgan yoki o'rganilgan mavzu bo'yicha yangi bilimlarni egallash yoki kengaytirish uchun axborot izlash, yig'ish, tahlil qilish, taqqoslash va yakuniy xulosa chiqarish kabi faoliyatlar ta'lism oluvchi tomonidan mustaqil ravishda amalgalash oshiriladi.

Ochiq hamda masofaviy ta'lism kurslari yordamida bilim olish. Mustaqil ta'lismning bunday turida har bir ta'lism oluvchining qiziqishlari va intellektual salohiyatini hisobga olgan holda individual tarzda ta'lism beriladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ham mustaqil ta'lismning bunday turidan foydalanish borasida yetarli darajada amaliy ishlar amalgalash oshirilib kelinmoqda.

Mustaqil ta'lismni samarali amalgalash oshirish uchun quyidagi mezon va talablarga rioya etish talab qilinadi:

mustaqil ta'lismni tashkil qilishga tizimli yondoshish;

uning barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;

mustaqil ta'lism topshiriqlarining bajarilish ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

mustaqil ta'lismning o'quv – uslubiy ta'minotini yaratish va takomillashtirib borish.

Inson borliqning bir bo'lagi sifatida undagi har bir vogelikka o'ziga xos mulohaza bilan yondoshsa, ko'rgan, eshitgan hodisalarni ziyraklik bilan mushohada qilsa, uning tafakkuri, qarashlarida yangilik, samara bo'lishi muqarrar. Bunda mustaqil ta'lidan foydalanish asosiy omillardan hisoblanadi.

Ona tili, o'qish, matematika darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil ta'lidan foydalanish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalar shakllanishida juda katta ahamiyatga ega .

O'quvchilarning mustaqil ta'liz olishlari uchun quyidagi topshiriqlarni muntazam ravishda berib borish tavsiya etiladi:

- mavzuni darslik asosida o'rganish;
- namunaviy mustaqil mashqlar;
- yangi turdag'i topshiriqlar;
- o'zlashtirilgan usullarni amalda qo'llashga oid vazifalarni bajarish;
- ijodiy ishlar;
- uyga berilgan topshiriqlar.

Boshlang'ich sinflarda uyga vazifa quyidagi vazifalarni bajaradi:

- BMK larni mustahkamlash chuqurlashtirish;
- o'quv-biluv faoliyatida mustaqillikni shakllantirish;
- tarbiyalash va rivojlantirish;
- o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish;
- talim va o'zini-o'zi boshqarishni yaqinlashtirish;
- o'quvchilarda irodaviy sifatlarni tarbiyalash;
- bajarilayotgan ishga nisbatan ijodiy munosabatni shakllantirish;
- o'quvchilarni yangi materialni o'zlashtirishlari uchun bilimlarini tizimlashtirish, umumlashtirish.

Hozirgi kunda ta'liz jarayonida interfaol usullar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifashini bajaradi. Masalan, "Talaffuz mashqi", "Birinchi tovushni top", "Oq terakmi, ko'k terak", "Zanjir", "So'z o'yini", "Koptok o'yini" kabi usillarni misol qilish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.N.A.Muslimov va boshqalar.”Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik”.Toshkent-2016,147 bet
2. J.Yo’ldoshev,S.Usmonov,”Pedagogik texnologiya asoslari”,T.,2004.
3. Barakayev.M va boshqalar “Mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi”Toshkent-2017
4. 4-sinf o’qituvchilar uchun ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyatga joriy etish bo‘yicha metodik qo’llanma “Sharq” nashriyoti,Toshkent-2017.)